

O'RTA ASR ARAB VA FORS MANBALARIDA MAHMUD YALAVOCH SHAXSINING YORITILISHI

Muxtorova Gulhayo Alisher qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası talabasi
E-mail: huamei.uz@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mahmud Yalavochning shaxsiga aniqlik kiritib beruvchi arab va fors manbalaridagi ma'lumotlar juda oz. Shu bois, uning hizmat faoliyati ochib berilishi ham XIII-XIV asrda mo'g'ullar hususan chig'atoy ulusi hukmronligi davridagi Markaziy osiyo hududlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlarning mo'g'ullarga yoki ushbu hududlarda yashovchi aholiga nisbatan ijobiy va salbiy ta'sirlarini ochishda muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar. Mahmud Yalavoch, Jamol al-Qarshiy, Ma'sudbek, Alibek, Chig'atoy ulusi.

АННОТАЦИЯ

В арабских и персидских источниках имеется очень мало информации, проливающей свет на личность Махмуда Ялавача. Поэтому раскрытие его служебной деятельности также важно для выявления позитивных и негативных последствий изменений, происходивших в общественно-политической жизни регионов Средней Азии в период правления монголов, особенно Чигатайского улуса, в XIII-XIV вв., для монголов или населения, проживавшего в этих регионах.

Ключевые слова: Махмуд Ялавоч, Джамал аль-Карши, Масудбек, Алибек, Чигатайский улус.

ABSTRACT

There is very little information in Arabic and Persian sources that provides clarity on the identity of Mahmud Yalavoch. Therefore, revealing his service activities is also important in revealing the positive and negative effects of the changes that occurred in the socio-political life of the Central Asian regions during the rule of the Mongols, especially the Chigatai ulus, in the 13th-14th centuries on the Mongols or the population living in these regions.

Keywords: Mahmud Yalavoch, Jamal al-Qarshi, Masudbek, Alibek, Chigatay ulus.

KIRISH

Mahmud Yalavochning Movarounnahrda faoliyati haqidagi malumotlar manbalarda bizgacha juda oz miqdorda yetib kelgan. Shu boisdan Mahmud Yalavoch obrazini kompleks o'rganish va XIII-XIV asrlarda Movarounnahr tarixidagi o'rnini aniqlash mazkur davrning qator muammoli masalalariga oydinlik kiritadi. Eng avvalo yuqorida aytilgandek, Mahmud Yalavoch haqida xabar beruvchi manbalar sanoqli. U haqidagi muxtasar ma'lumotlarni o'z davri manbalari hisoblangan Jamol al-Qarshiy¹, Rashid ad-Din², Alouddin Atomalik Juvayniy³, kabi asarlarda uchratamiz. Keyingi davr manbalarida shu ma'lumotlar takrorlanadi. Jumladan, Ibn Battuta⁴, Mirzo Ulug'bek⁵, Abulg'azi Bahodirxon⁶ va boshqalar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mahmud Yalavoch XII-XIV asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan *Chig'atoy ulusida* o'z faoliyatini olib borgan. Ushbu ulusning ijtimoiy-siyosiy, jarayonlarida muhim ro'l o'ynaganligi uchun tarixiy shaxsiyati katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Uning to'liq ismi va nasl-nasabi to'g'risidagi ma'lumotlar aniq emas. Chig'atoy ulusining ijtimoiy boshqaruvidagi tasir doirasi keng ekanligiga qaramasdan u haqidagi ma'lumotlar mavhumligicha qolmoqda.

Shu bois, u va avlodining hizmat faoliyatini ochib berish O'qtoy va Chig'atoy uluslarining davlat boshqaruvidagi ijtimoiy tizimi kengroq yoritilishiga xizmat qiladi. Bizga ushbu davr haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asosiy manbalar hisoblangan. Ushbu davrni o'rganishda qimmatli bo'lgan, Arab tilidagi birlamchi manbalar sirasiga kiruvchi va arab tilida ijod etgan mualliflar bir qancha.

Shular jumlasida; Jamol al-Qarshiyning "*Al-Mulhaqat bi-s-Surah*" ("*Suroh lug'atiga ilovalar*") asarida, uning to'liq ismi Mahmud Yalavoch ibn Muhammad al-Xorazmiy deb beriladi⁷. Zero unga nima uchun Xorazmiy nisbasi berilishi

¹ Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв. ред. А.К.Муминов. Ведение, перевод с арабского-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х.Вохидова, Б.Б.Аминова. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2005. – 416 с.

² Рашид ад-дин. “Шуаб-и панджгана”. Факсимиле / Подготовка к изданию к.и.н. И.М.Миргалеев. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2016. – 460 с.

³ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 б.

⁴ Ибн Баттута. Саёҳатнома. Тухфат ан-нуззор фи ғароиб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор / Масъул муҳаррир Н.Иброҳимов. – Тошкент: “SHARQ”, 2012. – 688 б.

⁵ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (*Британия музейи (Англия) қўлёзмаси. инв. № ADD 26190*: Тарих-и арбаъ улус). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.

⁶ Баҳодирхон А. Шажарайи турк: Ўрта ва катта мактаб ёшидаги болалар учун /Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А.Аҳмедов. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 192 б.

⁷ Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв. ред. Алматы: “Дайк-Пресс”, 2005. – С. 127.

ochiqlanmagan. Asarda unga imomlar boshlig'i Mavlono Roziyolloxning maqtab yozilgan qasidalaridan parchalar keltirgan⁸.

Unda Mahmudni huddi quyosh kabi deya tariflaydi, hamda alloxga hamdusanolar aytadi. Uning sharofati bilan islom bayrog'i baland ko'tarilganligi, hamma joyda adolat qaror topganligini aytadi. Uning yulduzlardek porlashini so'rab alloxga hamd aytdik deya keltirilgan. Ma'sudbek timsolini ochib berishda uni odamlarning eng sahiysi deb zikr etgan⁹. Jamol al-Qarshiyning yozishicha Mahmud Yalavoch Chingizxon davridan to Mankuxon davrigacha Jayxun Xurosondan Xitoy davlatigacha bo'lgan hududlarning vaziri sifatida idora etganligini ta'kidlaydi.

Uning qayerda tavallud topganligi, avlodi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Faqat vafot etgan joyi Xonbaliq 1252-1254-yillar oralig'i deb keltirilgan¹⁰. Shu bilan birga Chig'atoy ulusi davrida hukmronlik qilgan Yalavochlar sulolasidan oltitasini sanab o'tadi. Ya'ni 1) Mahmud Yalavoch ibn Muhammad al-Xorazmiy 652/1252-1254. 2) Alibek /1281¹¹, 3) Ma'sud ibn Mahmud al-Xorazmiy /1289, 4) G'iyos ad-

Dunya va-d-Diyn Ma'sud II-Abu Bakr ibn Ma'sud ibn Mahmud xukmronlik davri 689/1290, vafot etgan 697/1298-yil may-iyun oylarida. 5) al-Amir Sotilmishbek, Ma'sud III hukmronli davri 702/1302-1303, 6) Fahr al-Mulk Suyinch ibn Ma'sud ibn Mahmud al-Xorazmiy, Ma'sud IV¹² larni keltirib o'tadi.

Ibn Battutaning "Sayoxatnoma" asarida Chig'atoy ulusidagi ijtimoiy jarayonlar aholining yashash tarzi haqidagi ma'lumotlarni yoritib berish bilan birga ushbu davrda islom dinining ahamiyatini yoritib o'tadi.

Fors tarixchilaridan Rashid ad-Dinning "Jome' at-Tavorix" asarida Mahmud Yalavoch haqida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Unga ko'ra, 1218-yil Xorazmshohlar yurtiga elchi sifatidagi tashrifi hamda Chingizxon tomonidan uning yuborilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan¹³.

Yana bir tarixchi Alouddin Atomalik Juvayniy "Tarixi jahongusho" asarida uning Movarounnahrda vazirlik faoliyati haqida mufassal ma'lumot berib o'tadi. Bunda O'qtoyxon Chig'atoy va Mahmud Yalavoch o'rtasidagi munosabatlar ochib

⁸ O'sha yerda.

⁹ O'sha yerda.

¹⁰ O'sha yerda.

¹¹ A.Xo'jayevning ma'lumotiga ko'ra, Alibek Mahmud Yalavachning ikkinchi o'g'li bo'lib avvaliga Ili xoni (Sharqiy Turkistonning Ili viloyati) hukmdori etib tayinlangan. Xubilay mo'g'ullar xoqoni etib tayinlanganda u markaziy o'rdaga chaqirilib davlat ishlariga jalb etilgan. 1267-yilda maslahatchi, 1272-yilda o'ng qo'l vaziri etib tayinlangan. Shunda unga Xenan o'lkasining ma'muriy ishlar boshlig'i vazifasi topshirilgan. 1276-yilda u Jyangxuey o'lkasi hokimi etib tayinlangan. 1281-yilning boshida Alibek tuxmat balosiga uchrab Xoqonning amriga xiyonat qilganlikda ayblanib qatl etilgan. – Qarang: Xўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар / Аблат Хўжаев. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 226.

¹² Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв. ред. Алматы: "Дайк-Пресс", 2005. – С. 128.

¹³ Рашид ад-дин. "Шуаб-и панджгана". Факсимиле / Подготовка к изданию к.и.н. И.М.Миргалеев. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2016. – С. 188.

berilgan. Shu bilan birga Mahmud Tarobiy bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ham o'z aksini topgan.

Mirzo Ulug'bekning *"To'rt ulus tarixi"* va Abulg'azi Bahodirxonning *"Shajarai turk"* asarlarida, uning 1218-yil Xorazmshohlar diyoriga elchi sifatidagi tashrifini bayon etib o'tadi. Mirzo Ulug'bek uni *Muhammad Xorazmiy* nomi bilan tilga oladi.

MUHOKAMA

Zamonaviy tadqiqotchilardan sharqshunos olim Xitoyshunos A.Xo'jayev u haqda ma'lumot beruvchi yagona Xitoy manbasi *"Yuan shi"* (*Yuanchao bishi*) *Yuan sulolasining mahfiy tarixi* ni keltiradi¹⁴. Unga ko'ra, Mahmud Yalavochning ismi *Maxama*, *Maxama Yalavochi*, *Yalavashi*, *Ma-he-mo-di-Xua-la-shi-mi*, *Maxamu-Yalavochi* deb keltiradi¹⁵.

Uning tug'ilgan yili haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Zero tug'ilgan yili noaniqligicha qolayotgan bo'lsada Yuan sulolasi tarixi (*Yuan shi* 元是)ning *"G'ayri avlodlar shajarasi"* (*"Sizubyao"*) qismida Mahmud Yalavochning Sharqiy Turkistonning *Yor Kent*¹⁶ shahrida tug'ilganligi haqidagi ma'lumot keltirilgan.

Aytish joiz, Mahmud Yalavoch *Yor Kentda* tug'ilgan bo'lishiga qaramasdan ma'lum bir muddat Xorazmda yashaganligi uchun manbalarda unga al-Xorazmiy nomi berilgan. A.Xo'jayevning ma'lumotlariga ko'ra, unga yana Xitoy ensiklopedik lug'atlarda Mahmud Yalavoch Xorazmlik savdogar sifatida keltirilganligini aytib o'tadi¹⁷. Xulosa qilib, uni Xorazmlik Savdogar bo'lganligini Chingizxon bilan mo'g'ulistonga savdo ishlari bilan tashrif buyurgan vaqtda tanishgan degan fikrni bildirgan.

XULOSA

Arab va forsiy manbalarda Mahmud Yalavochning shaxsiga to'liq oydinlik kiritilmagan. Jumladan Mo'g'ullar hukmronligi davridan avvalgi faoliyati ham ochiq qilinmagan. Asosan Xorazmshohlar davlati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi va Chig'atoy ulusidagi faoliyati yoritilib beriladi. Uning Xitoy hududida olib borgan islohotlari va faoliyati haqidagi ma'lumotlar arab va fors manbalarida yetarli emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rashid al-Din. The Successors of Genghis Khan. Trans. J.A.Boyle. – Columbia: University Press, 1971. – P. 140.

¹⁴ Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 226.

¹⁵ O'sha asar. – Б. 227.

¹⁶ O'sha yerda.

¹⁷ O'sha asar. – Б. 228.

2. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи)/ Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 б.
3. Баҳодирхон А. Шажарайи турк: Ўрта ва катта мактаб ёшидаги болалар учун /Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А.Аҳмедов. – Тошкент: Чўлпон, 1990. – 192 б.
4. Джама л ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах / Отв. ред. А.К.Муминов. Введение, перевод с арабского-персидского, комментарии, текст, факсимиле Ш.Х.Вохидова, Б.Б.Аминова. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2005. – 416 с.
5. Ибн Баттута. Саёҳатнома. Тухфат ан-нуззор фи ғаройб ал-амсор ва ажоиб ал-асфор / Масъул муҳаррир Н.Иброҳимов. – Тошкент: “SHARQ”, 2012. – 688 б.
6. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. – Тошкент: Фан, 1996. – 611 с.
7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (Британия музейи (Англия) қўлёзмаси. инв. № ADD 26190: Тарих-и арбаъ улус). – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 352 б.
8. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар / Аблат Хўжаев. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 280 б.